

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav\_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Shermatov Jaxongir Rasulovich

Sana: 21-02-2025 yil



## YIG'MA EKSPERT XULOSASI

231534 - SONLI

|                                                                                                                                            |                                                   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| <b>Obyekt nomi:</b> "Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasida ko'p qavatli turar-joy binosi qurishi" I-bosqich loyihasi. |                                                   |
| <b>Buyurtmachi:</b>                                                                                                                        | "LOTUS GAZ INVEST" MCHJ                           |
| <b>Bosh loyihachi:</b>                                                                                                                     | "O'ZINVESTLOYIHA" mas'uliyati cheklangan jamiyati |
| <b>Moliyalashtirish manbai:</b>                                                                                                            | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan         |
| <b>Bosh pudratchi:</b>                                                                                                                     | Tanlov asosida aniqlanadi.                        |
| <b>Qurilish turi:</b>                                                                                                                      | Yangi qurilish                                    |
| <b>Murojaat raqami:</b>                                                                                                                    | 044281                                            |

### 1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Hokimining 04.05.2016-yildagi Toshkent shahrining markaziy qismida ko'p qavatli turar-joy binolarini qurish uchun yer maydonlari ajratib berish haqida 395-soni qarori.

1.2. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan 04.11.2024-yildagi 1726-1726269-204329-sonli Arxitektura-Rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 06.09.2023-yildagi 55529828-sonli xulosasi.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 28.11.2024-yildagi 01-02/14-2900-sonli Davlat ekologik ekspertizasi ijobiy xulosasi.

1.5. "Geo-Inform" MCHJ tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan qurilish maydoni hududining muhandislik-geologiya sharoitlari to'g'risidagi xulosasi.

1.6. Buyurtmachi tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan va bosh loyihachi bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.

1.7. Buyurtmachi va Bosh loyihachi o'rtasida 31.10.2022-yilda tuzilgan GB/31-sonli shartnoma.

1.8. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MChJning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 16.10.2024-yildagi 05-2310-sonli texnik shartlari.

1.9. Toshkent shahri bo'yicha gaz ta'minoti hududiy filialining 05.02.2018-yildagi gazlashtirish uchun 44018-T-sonli texnik sharti va "Hududgaz Poytaxt" gaz ta'minoti filialining 11.09.2024-yildagi ulanish nuqtasi o'z kuchida qolishi to'g'risida 41-02-11-927/6707-sonli xati.

1.10. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJning 20.03.2024-yildagi 270/4-859-sonli Texnik shartlari.

## **2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. Loyiha tarkibi bo'yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja loyiha chizmalari;
- arxitekturaviy loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- konstruktiv loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- elektr ta'minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- yong'in yong'in signalizatsiya va nazorat qilish tizimi.
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- shamollatish va isitish tizimlari bo'yicha chizmalar;
- obyektning issiqlik texnikasi hisob-kitobi va energiya samaradorlik pasporti;
- qurilish xarajatlarining umumiy smeta hisob-kitoblari.

2.2. Buyurtmachining 02.02.2025-yildagi ekspertiza ko'rigidan o'tkazib berish muddatini uzaytirish bo'yicha LGV 5/1-sonli murojaat xati.

2.3. Buyurtmachining 13.02.2025-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024-yil PQ-161-sonli qarorining talablarini bajarish maqsadida foydalanishga qabul qilishdan oldin o'z hisobidan qurilish obyektini zilzilabardoshligini sinash ishlarini olib borish va binoning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunasi o'rnatish to'g'risida 7-sonli kafolat xati.

## **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

### **3.1. Qurilish maydonining oziga xos xususiyatlari:**

- Qurilish maydonining zilzilabardoshligi-8 ball.
- Me'yoriy qor qatlami vazni- $50\text{kg/m}^2$ .
- Me'yoriy shamol bosimi- $38\text{kg/m}^2$ .
- Cho'kuvchanlik bo'yicha tuproq turi - II.
- Mavsumiy tuproqni muzlash chuqurligi - 0,7 m.

### **3.2. Bosh reja (loyiha bo'yicha).**

Loyihalashtirilayotgan ko'p qavatli turar-joy binosi Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasida joylashgan. Hududga bosh reja bo'yicha pastki qavatli savdo va maishiy-xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binolari, biznes-markaz parking, avtoturargoh, dam olish maydonlari, yer osti parkovka, bolalar maydonlari, nimstansiya (TP) chiqindi yig'ish joylari va boshqalar joylashtirilgan. Bosh reja bo'yicha bo'sh maydonlar obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi. Obyektni amalga oshirish 3 bosqichdan iborat. Mazkur loyihada 1-bosqich 9 qavatli turar-joy binosi ko'zda tutilgan.

#### ***Hudud balansi:***

- hududning umumiy maydoni -  $18000,0\text{ m}^2$ .
- umumiy qurilish maydoni -  $7523,4\text{ m}^2$ .
- obodonlashtirish maydoni -  $10809,0\text{ m}^2$ .

### **3.3. Arxitektura yechimlari.**

**Turar-joy binosi** 9 qavatdan iborat bo'lib 56 ta xonadon loyihalashtirilgan, hamda yer osti qavatiga ega. Bino loyiha tarhiga ko'ra to'g'ri-to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlardagi o'lchamlari 21,8 x 29,0 m, umumiy balandligi 38,24 m. Bino yer osti qavatida texnik xonalar, 1-qavat noturar, 2-qavatdan - 9-qavatgacha 1, 2 xonali namunaviy xonadonlar ko'zda tutilgan. Xonadonlar tarkibida - yo'lak, yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, oshxona, mehmonxona, yuvinish xonasi, balkon.

Bino 1 podyezdli va yerto'la qavatiga ega. Yerto'la qavatning poldan shiftgacha balandligi  $h=3,6$  metr, poldan-polgacha  $h=3,9$  metr, 1-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi  $h=7,22$  metr, poldan-polgacha  $h=7,50$  metr, 2-9 qavatlar poldan shiftgacha balandliklari  $h=3,04$  metr, poldan-polgacha  $h=3,3$  metr.

Binoga 1 ta kirish yo'lagi ko'zda tutilgan. 1-qavatga kirishda zina va pandus loyihalashtirilgan. Binoda N1 turidagi 1ta zinapoya katakchasi va 2 ta lift joylashtirilgan.

Tashqi devorlari gazablok 300 mm. Ichki par devorlari gazablok 150, 200mm.

Tom qavati paroizolyatsiya, 150 mm mineral plita issiqlik izolyatsiyali.

Loyihada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqsiz harakatlanishi ShNQ 2.07.02-22 talablari ko'zda tutilgan.

9 qavatli turar - joy binosi 56 xonadonli bo'lib quyidagicha xonadonlardan iborat:

1-xonali xonadon - 32 dona;

2-xonali xonadon - 24 dona;

**Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:**

Qurilish maydon - 749,20 m<sup>2</sup>.

Umumiy maydon - 4325,50 m<sup>2</sup>.

Qurilish umumiy hajmi - 23899,55 m<sup>3</sup>.

**Ichki pardozlash:** Devorlar va pardevorlar - gazablok, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash.

Pol - Hidroizolyatsiya qatlami, 10 mm bo'lgan ovozdan izolyatsiyasi bilan qo'planadi, ustidan 50 mm sement qorishmali beton uning ustidan - Laminat, keramik plitka.

Eshiklar - MDF.

Shift - GKL suvoq, suvli bo'yoq bilan bo'yaladi.

**Tashqi pardozlash:** Devorlari - bazalt izolyatsiyasi bilan qo'planadi, travertin yakunlovchi suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash, keramik plitka.

Poypesh - keramik plita.

Eshiklar - tashqi individual metall ishlab chiqaruvchining eskizlari bo'yicha, polga mustahkam mahkamlanadi.

Oynalar - plastik (ПВХ).

Vitraj - alyumin profilli.

**3.4. Konstruktiv yechimlari.**

Binoning yuk ko'taruvchi asosi ikki qavatli armo-karkasdan iborat va quyma temir-beton rama - boglamali konstruksiya sifatida ishlab chiqilgan.

Poydevori - qalinligi 1000 mm bo'lgan quyma temir-beton plita, beton sinfi B20, armatura sinfi AIII.

Yerto'la devori - quyma quyma temir-beton qalinligi  $t=400$  mm, beton sinfi B25.

Ustunlar - quyma temir-beton o'lchami 500x500mm, 600x600mm, beton sinfi B25.

Rigellar - quyma temir-beton, o'lchami 500x500 mm(h), 500x600 mm(h) beton sinfi B25.

Diafragma - quyma temir-beton, qalinligi 200, 300, 400 mm, beton sinfi B22.5.

Orayopmalar-quyma temir-beton qalinligi  $t=180/200$  mm, beton sinfi B25, shiftning konturi bo'ylab antiseysmik kamarlar quriladi.

Tashqi devorlari - qalinligi  $t=300\text{mm}$  bo'lgan gazobloklardan qorishmasi kley bilan teriladi, devorlar balandligi bo'ylab 600 mm oraliqda CF to'rlar bilan gorizontal bo'g'inlari bilan mustahkamlanadi; vertikal metal ustunlar bilan mustahkamlanadi.

Pardevorlar -  $t=150\text{mm}$ ,  $200\text{mm}$ ,  $250\text{mm}$  bo'lgan gazobloklardan qorishmasi kley bilan teriladi, devorlar balandligi bo'ylab 600 mm oraliqda CF to'rlar bilan gorizontal bo'g'inlari bilan mustahkamlanadi; vertikal metal ustunlar bilan mustahkamlanadi.

Zinapoyalar - quyma temir-betondan, beton sinfi B25.

Lift shaxtasi - qalinligi 200mm bo'lgan quyma temir-beton.

Tom tuzilmalari –metal konstruksiyadan yopilgan metal tusinni qadami 2,150 m.

Tom metal to'sinlarda profnastil bilan yopiladi.

### **3.5. Nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha.**

Loyihada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqsiz harakatlanishi ShNQ 2.07.02-22 talablari ko'zda tutilgan bo'lib, binoga kirishda nogironlar uchun pandus va tutqichlar, lift, nogiron shaxsning harakat yo'nalishni ko'rsatuvchi maxsus taktil belgilar va boshqalar ko'zda tutilgan.

### **3.6. Yo'nginga qarshi texnik yechimlar:**

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Konstruktiv yong'in xavf sinfi -C0.

Binolarning funktsional yong'in xavfi bo'yicha tasnifiga ko'ra - F1.3.(3-9 qavatlar) F3.1.(yerto'la, 1-2 qavatlar).

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatiladi.

Loyihada binoning barcha qavatlarida avtomatik yong'in o'chirish va signalizatsiyasi, odamlarni yong'indan ogohlantirish tizimi hamda "CHIQISH" belgilari bilan jihozlanadi.

Binoning 1-qavatida va yerto'la qismida avtomatik (splenkler suv to'ldirish tizimi boshqaruvi) yong'inni o'chirish (APT) inobatga olingan va yong'inga qarshi nasos stansiya tizimi loyihalashtirilgan. Havo zonasi (balkon) orqali o'tadigan tutunsiz H1 zinapoyasi rejalashtirilgan. Har bir xonadonda 1200 va 1600 devorli balkonlar va lodjilar va yong'inga qarshi eshiklar hamda tomga chiqish joyi ko'zda tutilgan.

Tashqi yong'inni o'chirish suv ta'minoti tarmog'iga o'rnatilgan yong'in gidrantlaridan ta'minlanadi.

Bino atrofida yong'in hafvsizligi qoidalariga binoan o't o'chirish yo'lagi ko'zda tutilgan hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olinadi.

### **3.7. Energiyasamaradorlik yechimlar.**

Binoning energiya samaradorligini oshirish maqsadida mazkur obyekt bo'yicha o'rab turgan konstruktsiyalarning issiqlik texnikasi hisob-kitobi ishlab chiqilgan. Bino devoriga yonmaydigan issiqlik tutuvchi bazalt tola asosli mineraljun plita izolyatsiyasi qoplanadi.

Loyihada binoni maishiy issiq suv bilan ta'minlash maqsadida muqobil issiqlik manbalari 6 dona quyosh kollektorlarini (vodonagrivatel) o'rnatish ko'zda tutilgan. Yoritish tizimi uchun zamonaviy energotejamkor yoritish chiroqlaridan foydalaniladi.

Binoning tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo'llaniladi, yoritish tizimida svetodiodli chiroqlari o'rnatiladi, qisqa vaqtda yonib-o'chadigan qurilmalar (harakatni va yorug'likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalaniladi, kirish yo'laklarida eshiklarni o'zi yopuvchi mexanizmlar (dovochik) va berk yopilishi ta'minlanadi.

Binoga tarmoq quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish rejalashtirilgan. Quyosh stansiyaining umumiy quvvati 12,1 kVt bo'lgan jami 22 dona (har biri 550 Wt dan) quyosh panellar hamda quvvati 10 kVt bo'lgan 1 ta invertor o'rnatish loyihalashtirilgan.

### **3.8. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.**

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblanganda - 32 384 017,216 ming so'mni tashkil qiladi.

Obyektning dastlabki smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

4.1. Loyihalanayotgan binoning kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig'iga asosan, ichki elektr ta'minoti va elektr yoritish, yong'in yong'in signalizatsiya tizimi va nazorat qilish tizimi, ichki suv va oqova suv tarmoqlari, isitish va shamollatish tizimlari loyihada ko'zda tutilgan.

4.2. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti mazkur obyekt bo'yicha tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo'yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda kelishilsin. Buyurtmach tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'ining 4-bandiga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari 2-bosqichda amalga oshiriladi.

4.3. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti mazkur obyekt bo'yicha tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo'yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari bo'yicha loyiha hujjatlari va loyihaning 2,3-bosqichlari ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda kelishilsin. Natijasi bo'yicha, loyiha-smeta hujjatlari ShNQ 1.03.03-23 va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlari talablariga rioya etgan holda ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun taqdim etilsin.

4.4. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkiloti mazkur obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlari bo'yicha qurilish-montaj ishlari tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida amalga oshirilishini ta'minlasin.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 06.09.2023-yildagi 55529828-sonli xulosasi olingan hamda binoning eskiz ko'rinishi, bosh reja, qavatlar tarxi, fasad va holat tarxi Qurilish bo'sh boshqarmasi bilan (03-36 bayoni) 18.08.2023-yilda kelishilgan. Hududiy yo'ng'inga qarshi nazorat xizmati hamda hududiy sanitariya-epidemiologiya xizmatlari bilan kelishilgan.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 28.11.2024-yildagi 01-02/14-2900-sonli Davlat ekologik ekspertizasi ijobiy xulosasi.

5.3. Loyiha hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

5.4. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga amal qilinsin. Buyurtmachi loyihani tasdiqlashdan oldin loyiha hujjatlarini barcha tegishli tashkilotlar bilan belgilangan tartibda kelishilsin, shu jumladan loyiha Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi va FVB yo'ng'in xavfsizli nazorat xizmati bilan kelishib olishi shart.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **32 384 017 216** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

**1 268 987 540** so'mga kamaytirilib, **31 115 029 676** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **25 905 917 464** so'm

Asbob-uskunalar: **1 875 359 032** so'm

QQS: **3 333 753 180** so'm

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan loyiha va smeta hujjatlari (texnologiya qismisiz) ko'rib chiqildi.

6.2. Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari ekspertizaga texnologik, qurilish va boshqa bo'limlar bo'yicha buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.3. Loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ekspertlar tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan o'zgartirish va tuzatishlar kiritildi va qayta to'ldirildi:

- ekspertiza tekshiruvi hamda taqdim qilingan smetadagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida smeta ko'rsatgichlari 1 268 987,54 ming so'mga kamaytirilib, buyurtmachining boshqa xarajatlari va 12% QQS bilan hisoblanganda 31 115 029,676 ming so'mni tashkil qildi.

6.4. Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilib, taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgar hisoblanadi.

6.5. Obyektning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy bajarilgan ishlar (ijro hujjatlari) natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

6.6. Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonun talablariga rioya etilsin.

6.7. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan ishchi-quruvchilarning ish haqlari, qurilish mexanizmlari narxlari hamda pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo'yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi. Bunda buyurtmachi tashkilotni ShNQ 4.01.16-09ning tegishli bandlariga amal qilinishi talab etiladi.

6.8. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti ShNQ 2.07.01-03\*, ShNQ 2.07.01-23\*, ShNQ 2.08.01-19 va ShNQ 2.01.02-04 hamda QMQ 21-02-99\* ning tegishli bandlariga amal qilgan holda loyiha amalga oshirsin. Ekspertlar tomonidan berilgan oraliq xulosalarda ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha va kamchiliklar to'liq bartaraf etilsin. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti obyekt bo'yicha chegara hududidan chiqilmasin va chegaradoshlardan rozilik xati olinsin.

6.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266-sonli qarorining tegishli bandlari hamda ShNQ 2.07.02-22 shaharsozlik norma va qoidalari talalari bajarilishi ta'minlansin.

6.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024-yildagi 161-sonli qarori talablari bajarilish ta'minlansin.

6.11. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti loyihani amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023-yildagi PF-199-sonli, 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonlarining tegishli bandlari talablari to'liq bajarilishini ta'minlasin.

6.12. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi ruxsatnomasi, arxitektura va rejalashtirish topshirig'i, Arxitektura va shaharsozlik kengashi

ishchi organining xulosasi talablari hamda maqsadlari asosida loyiha amalga oshirilishi ta'minlansin.

6.13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bob, 29-bandiga muvofiq ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.14. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga, yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlasin.

6.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2019-yildagi PQ-4545-son qarorining tegishli bandlari bajarilsin.

6.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 26-dekabrdagi "Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muxofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1050-son hamda 1998-yil 15-maydagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalariga amal qilinsin.

6.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorining 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.19. Loyiha hujjatlarida o'zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi "Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining" xulosasi qayta olinib, loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda qayta ekspertiza olinsin.

6.20. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan-Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Buyurtmachi va loyiha tashkilotlari tomonidan "Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasida ko'p qavatli turar-joy binosi qurishi" I-bosqichi loyihasi bo'yicha tayyorlanib taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza natijalarini (6-band) hisobga

olgan holda kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

**Bosh ekspert:** Kulmatov Raxim Abdimalikovich.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Alimjanov Muzaffar Anvarovich, Dosmuxamedova Mariya Valerevna, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Musayev Rustam Talatovich, Ubaydullayev Azizbek Baxodirovich, Atabayev Daniyar Baxtiyarovich, Shirnazarov Tohir Abdullayevich